

TO'QUVCHILIK LEKSEMALARINING LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLARI VA YASALISH ASOSLARI

Ibragimova Nodira Javliyevna
Termiz davlat universitetimagistranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisda to'quvchilik leksemalarining leksik-semantik munosabatlari va yasalish asoslari yoritilgan

Kalit so'zlar: Sintaktik (kompozitsion) usul, morfologik usul, kizu, seruv, dasta, arqon, shordoz, taqir, juvoldiz.

Terminlar sinonimyasi S.B.Grinev Grinevichning terminologik apparat o'zgarishini tahlil qilish asosida nazariy fikrlashning xususiyatlari haqida aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Shuningdek, bu orqali madaniyatlarining rivojlanish tendensiyalarini ham o'rganish mumkin bo'ladi.

Tilshunoslikda muayyan tilga xos so'z yasash usullari bilan so'z yasovchi vositalar yordamida yangi so'zlar hosil qilish til leksikasining boyishidagi eng yetakchi yo'llardan biri sifatida talqin qilinadi. Ichki resurslar asosida so'z yasash, asosan, tilning o'ziga xos so'z yasash usullariga tayangan holda so'z yasovchi vositalar ko'magida amalga oshadi.¹

O'zbek adabiy tili luga'at tarkibidagi leksemalar tarixiy shakllanish jihatidan faqat turkiy tillarga xos bo'lmay, balki fors-tojik, arab, mo'g'ul, rus tillaridan, shuningdek, uyg'ur tili orqali xitoy tilidan kirib kelgan so'zlar ham uchraydi. O'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichiga nazar solsak, mazkur so'zlar turli davrlarda xilma-xil ijtimoiy sabablar bois o'zlashganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, forsiy istilohlar o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan yonma-yon yashab, bir-biri bilan ijtimoiy va madaniy munosabatda bo'lib kelganligi natijasida, arabcha leksemalar esa, asosan, kitobiy til va forsiy til, shuningdek, qisman og'zaki nutq orqali kirib kelgan.

Surxondaryo vohasi to'quvchilik so'zlarini yasalish jihatdan tahlil qilsak, sintaktik (kompozitsion) va morfologik usulda yasalganini ko'ramiz:

Sintaktik (kompozitsion) usulda yasalgan so'zlar: uchyoq, kindiksim, ilgaksim, chimchiqko'z, archagul, pichoq uchi, tovuqko'z, qo'zitish, sara gilam, atlas gilam, shoyi gilam, qulf-kalit, ittovan, terma gilam, ona gilam, qiz gilam, oq enli, bibishak, uzib olmoq, qirqib olmoq, bahorgi jun, kuzgi jun;

Morfologigk usulda yasalgan so'zlar: Tuksiz, gulsiz, terma, qoqma, tumorcha, bahorgi, kuzgi, orqaliq, odarg'i, turli, taroq, tikish, o'rmak, urchuq, o'rkach, qoziq;

Fors-tojik tilidan kirib kelgan so'zlar: kizu, seruv, dasta, arqon, shordoz, taqir, juvoldiz.

XV asr manbasi Navoiy asarlarida ham ko'pgina forsiy va arabcha kasb-hunarga oid so'zlarni kuzatish mumkin. Ushbu o'zlashmalarning ma'lum qismi shoir asarlari tiliga shu darajada singib ketganki, ular turkiy qo'shimchalar bilan birikib, yangi so'zlar hosil qilishda faol qatnashgan va turkiy leksemalar bilan baravar darajada qo'llanilgan. Quyida turkiy affikslar yordamida forsiy va arabcha leksemalardan yangi so'zlar yasalgan.

Ismdan ot yasovchi qo'shimchalar:

-lig/-lig/-liq/-lik/-lug/-luq/-luk affiksi kasb-hunar, mansab, holat, munosabat, aloqadorlik semalarini ifodalovchi leksemalar hosil qilishda ham qatnashgan:

Arabcha o'zlashmalarga qo'shilish orqali hosil qilingan so'zlar: gilamchilik – gilam to'qish kasbi, hunari.

¹ Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi ozbek adabiy tili.- T: 2003.19-bet

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-NOYABR, 2024

-chi affixi forsiy va arabcha so‘zlar bilan birgalikda kasb-kor, yumush egasi ma’nosini anglatuvchi otlarni hosil qilgan: to‘quvchi.

-siz/siz/suz/-suz. Mazkur affiks asosan o‘zlashma otlarga qo‘shilib, o‘zakdan anglashilgan ma’noga ega emaslikni ifodalovchi sifatlarni hosil qiladi: mevasiz yig‘och.

-chi affiks XI asr tilida otlarga qo‘shilib, kasb nomini ifodalagan. Mahmud Qoshg‘ariy “chi” affiksini o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida kasbni anglatuvchi affiks deb ta’riflagan:

“Em- davo, dori demakdir, shuning uchun davolovchi emchi deyiladi. Tarjimasi: Timchi ichimlik tayyorlovchi demakdir. Ba’zi odamlar bu so‘zni ichimlik sotuvchi ma’nosida ishlata dilar. Birinchi ma’no to‘g‘ridir. Chunki – “chi” affixi faqat kasb-hunar egasi ma’nosinigina anglatadi, xo los.²

A.Navoiyning yozishicha, mansabning, hunarning yoki peshaning izhori uchun ba’zi so‘zlar so‘ngida – “chi” qo‘shimchasini olgan. “Mansabda andoqki, qorchi, suchi, hizanachii, kerék yaraqchi, chögénchi, nizachi, shükürchi, yurtchi, shilénchi, axtachi, hunar va peshada andoqki: qushchi, barschi, qoruqchi, tamg‘achi, jibechi, yorg‘achi, xalvachi, kemechi, qoychi. Qush hunarida ham istiloh bordir. Andoqki: qazchi, qushchi, turnachi, kiyikchi, tashuqanchi.

O‘zbek tilining asoschisi Alisher Navoiy yuqorida qilgan misol orqali amal va mashg‘ulotlarga ot yasovchi “chi” qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan amaldorlar va kasb-hunarlar nomlari paydo bo‘lishini tushuntirib o‘tgan.

Keltirilgan misollardan va manbalar leksikasini o‘rganish mobaynida shu narsa ayon bo‘ldiki, qissa tilida turkiy hamda o‘zlashma lisoniy birliklardan yangi so‘zlar hosil qilishda ot yasovchi -lig/-lig// -liq/-lik// -lug/-lug// -luq/-luk ishtirok etgan. Demak, turkiy til lug‘at tarkibining boyib borish jarayonini kuzatishda, o‘zga tillarning turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili rivojida tutgan o‘rnini aniqlashda, shuningdek, ekstralengistik omillarni to‘g‘ri belgilashda Navoiy asarlari til xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sohaga oid terminologik tizim materiallari tahlil qilinganda juda ko‘plab sinonimik qatorlar hosil qilinganligini ko‘rish mumkin: *kigiz,-tuvurliq-uzuk-namat-takiyamat; ip-argon-shordoz-belbog -tasma; gilam-sholcha-palos*.

To‘quvchilik terminlari ma’nodoshligida muayyan tushuncha ifodalovchi birlik narsa-predmet xususiyatiga ko‘ra o‘z belgilariiga ega bo‘ladi.

To‘quvchilik leksikasida omonimlar. Ta’kidlash joizki, “...til doirasidagi SLSlarda terminologik omonimiya (chunonchi, tilshunoslikda, geologiyada, biologiyada, morfologiya) mutlaqo zararsiz, lekin soha ichida terminologik omonimiya, polisemija hamda sinonimiya nomaqbul hodisadir. Biroq “til aynan bir leksemani turli SLSlar paradigmalarda joylashtirib uning ko‘p sememaligini ta’mindaydi. Har bir soha o‘ziga xos nisbatan mustaqil sistema bo‘lganligi sababli (masalan, morfologiya so‘zining: a) tilshunoslikda, b) geologiyada, v) biologiyada xilma-xil sememalarga ega bo‘lganligi kabi ular bir-biriga mutlaqo xalaqit bermaydi va har biri o‘z sistemasida yashab rivojlanaveradi .

Terminlar antonimiysi. Boshqa sohalar terminologiyalaridan farqli o‘laroq to‘quvchilikda yakka lug‘aviy birliklardan iborat antonimik juftlik kamroq qo‘llanilayotganligi ko‘rsatiladi.

Bu jarayonda semantik xususiyatiga ko‘ra antonimiya sinonimiyaga yo‘l ochadi. Antonimiya masalasini tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarda, asosan, tub, yasama, juft, qo‘shma leksemalarning antonimik munosabati aks ettirilgan. Shuningdek, antonimik munosabat birikmalarini vositasida ham ifodalanishi mumkinligi ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatib o‘tiladi.

Foydalaniqan adabiyotlar:

² Mahmud Qoshg‘ariy.Devoni lig‘atit-turk.-Toshkent: 1960. 37-b

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-NOYABR, 2024

1. Ibrohimov S.Fargona shevalarining kasb-hunar leksikasi.-T.,1959. 5-b.
2. Usmonov S. Ozbek terminologiyasini bazi masalalari. Toshkent.,1968.148-b.
3. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi ozbek adabiy tili.- T: 2003.19-bet
4. Дадабоев Х. “Девону лутатит турк”нинг тил хусусиятлари.-Т.: ТДШИ, 2017. - Б.73.
5. Mahmud Qoshg‘ariy.Devoni lig‘atit-turk.-Toshkent: 1960. 37-b
6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Университет, 2000.
7. Mahmud Qoshg‘ariy, “Devonu lug‘atit turk” I-tom, Toshkent, 1960, 11-bet.
8. Shavkat Rahmatullayev, O‘zbek tilining etimologik lug‘ati, II-tom, Toshkent, 2009